

## KO‘PKARI-MILLIY ETNIK O‘YINING SHAKLLANISHI VA PAYDO BO‘LISH OMILLARI

*Tursunov Oqil Amrulloevich*

*Buxoro davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat fakulteti dotsenti v.b.*

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.063>

*Annotatsiya: Milliy manaviyatimizning o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi jihatlardan biri hisoblangan ananaviy xalq o‘yinlari xalqimiz maishiy turmushining ajralmas qismiga aylanib ketgan. Ananaviy xalq o‘yinlar ajdodlarimizning ijtimoiy-manaviy va estetik ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan. Chunki har bir o‘yin shunchaki bo‘sh vaqtni ko‘ngilli o‘tkazish vositasi emas, balki yosh avlodni jismoniy va manaviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashning samarali usullaridan biridir. Mazkur maqolada ko‘pkari milliy sport o‘yinini rivojlanishi, uni tashkil etish va o‘tkazish qoidalari hamda me‘yorlari, yoshlarda chaqqonlik, hushyorlik, ustamonlik, halollik, raqibni hurmat qilish, mehmondo‘stlik, tolerantlik kabi fazilatlarni shakllantirishda tutgan o‘rni va ahamiyati yoritilgan.*

*Kalit so‘zlar: Xalq o‘yinlari sportchilar va trenerlar zaxirasi chaqqonlik, hushyorlik, ustamonlik, halollik, raqibni hurmat qilish, mehmondo‘stlik, tolerantlik sog‘lom turmush tarzi, jismoniy va ma‘naviy barkamollik, “Kokboru”, “Haqiqati Tochikiston”, Uloqchi otlar, chillak o‘yini, ko‘pkari, milliy etnik o‘yinini*

## ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ВОЗНИКНОВЕНИЯ МНОГОНАЦИОНАЛЬНОЙ ЭТНИЧЕСКОЙ ИГРЫ

*Турсунов Акыл Амруллоевич*

*Бухарский государственный педагогический институт*

*Доцент факультета физической культуры и др.*

*Аннотация: традиционные народные игры стали неотъемлемой частью жизни нашего народа. Традиционные народные игры основаны на социально-духовных и эстетических потребностях наших предков. Ведь каждая игра — это не просто добровольное времяпрепровождение, а эффективный способ воспитания духовно и физически зрелого молодого поколения. В этой статье обсуждаются вопросы, связанные с развитием, организацией и проведением многих национальных спортивных игр, их роль и значение в формировании у молодежи таких качеств, как ловкость, бдительность, настойчивость, честность, уважение к сопернику, гостеприимство, толерантность.*

*Ключевые слова: резерв спортсменов и тренеров, Народных игр, ловкость, бдительность, мастерство, честность, уважение к сопернику, гостеприимство, толерантность, здоровый образ жизни, физическое и духовное совершенство, «Кокбору», «Хакикати Точикистан», Улакчи лошадей, чиллакскую, многонациональную, национальную*

## FACTORS OF THE FORMATION AND EMERGENCE OF THE MULTINATIONAL ETHNIC GAME

*Tursunov Aqil Amrulloevich*

*Bukhara State Pedagogical Institute*

*Associate Professor of the Faculty of Physical Culture, etc.*

*Abstract: traditional folk games have become an integral part of the life of our people. Traditional folk games are based on the socio-spiritual and aesthetic needs of our ancestors. After all, each game is not just a voluntary pastime, but an effective way to educate a spiritually and physically mature younger generation. This article discusses issues related to the development, organization and conduct of many national sports games, their role and importance in shaping such qualities as agility, vigilance, perseverance, honesty, respect for the opponent, hospitality, tolerance among young people.*

*Key words: reserve of athletes and trainers of the People's Games, agility, vigilance, skill, honesty, respect for the opponent, hospitality, tolerance, healthy lifestyle, physical and spiritual perfection, Kokboru, Hakikati Tochikistan, Ulakchi horses, Chillak, multinational, national*

**KIRISH:** Jahon xalqlarining milliy madaniyati bugungi globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarida tobora unifikatsiyalashib, umuminsoniy xarakterga ega bo'lib bormoqda. Bu jarayon an'anaviy milliy madaniyatning rang-barang etnik va lokal xususiyatlarini o'zida aks ettirgan xalq o'yinlarini ilmiy jihatdan o'rganish va insoniyat sivilizatsiyasining madaniy merosi sifatida saqlab qolish naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda. Ma'lumki, xalq o'yinlari nafaqat zamonaviy sport turlarining shakllanishiga zamin bo'lgan, balki insoniyat madaniy genofondining muhim bo'g'inidan biridir. Xalq o'yinlarida ma'lum bir xalqning folklori, milliy kiyim-kechaklari, raqs-harakatlari, xo'jalik-madaniy an'analari va shu kabi qator etnopedagogik belgilari aks etgan. Xalq o'yinlarini tarixiy-etnografik, pedagogik aspektda tadqiq etib, nafaqat milliy o'ziga xoslikni, balki o'yinlarning umumbashariy qadriyatlar sifatidagi o'rnini ko'rsatishga va ko'plab ilmiy materiallar, qimmatli dala-etnografik materiallarini tadqiqot doirasiga olib kirgan. Zero, "Jismoniy sog'lom va barkamol avlodni voyaga etkazish bizning ustuvor vazifamiz va biz buning uchun bor kuch va mablag'larimizni safarbar etamiz. Shu ma'noda, biz jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor bermoqdami" [1; 125-b., 2; 66-b.], -deya ta'kidlaydi davlatimiz rahbari. Ha albatta bugungi kund mamalakatimizda etnik sport turlarini rivojlantirishga a'lohida a'tibor berilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktabrdagi "Kurash" milliy sport turini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3306-son, 2022-yil 25-maydagi "Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-259-son qarorlari va sport faoliyatini takomillashtirishga oid boshqa qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish o'ta muhim masalalardan biridir.

Darhaqiqat Mamlakatimizda milliy sport turlari va xalq o'yinlarini (etnosport) 6 ta yo'nalishga bo'lish mumkin: harakatli o'yinlar, intellektual o'yinlar, harbiy o'yinlar, stolda o'ynaladigan o'yinlar, cho'ponchilik, ov qilish o'yinlari.

O'tgan davr mobaynida ayrim etnosport turlari bo'yicha boshqarish tizimi yaratildi, sportchilar va trenerlar zaxirasi shakllantirildi, musobaqalarni doimiy ravishda o'tkazish va ularni moliyalashtirish yo'lga qo'yildi, buning evaziga yuqori natijalarga erishildi.

Xususan, 2017-yilda O'zbekiston belbog'li kurashchilari dunyo reytingida 2-o'rinni olib, 2020-yil o'tkazilgan jahon chempionatida dunyoning 30 ga yaqin mamlakatlari orasida 1-o'rinni egalladi.

Qarabtep (lanka) o'yini 7 ming yillik tarixga ega bo'lib, nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Xitoy, Shimoliy Kavkaz, Sibir hamda Yevropa mamlakatlarida ham keng tarqalgan.

Chillak o'yini o'ziga xos xususiyatlar va nozik tomonlarga ega bo'lib, qatnashchilardan zukkolik, o'yin madaniyatini, jismoniy baquvvatlikni, jasurlikni talab qiladi. Mazkur o'yin Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida keng tarqatilgan.

Navro'z bayramlari, hosil bayramlari, xalq sayillarida hamda to'y marosimlarida uloq-ko'pkari va ot poygasi bo'yicha musobaqalar o'tkazib kelinmoqda. 2001-yildan boshlab O'zbekiston uloq-ko'pkari federatsiyasi o'z faoliyatini amalga oshirib, xalqaro uloq-ko'pkari va ot poygasi musobaqalarini tashkil qilish hamda hamyurtlarimizning ishtirokini ta'minlashda katta hissa qo'shmoqda.

Hozirda respublikada 40 ta oilaviy dorbozlik guruhleri faoliyat ko'rsatib kelmoqda. "O'zbek davlat sirki" davlat muassasasining "O'zbekiston dorbozlari" jamoalari qadimgi dorbozlik an'analari zamonaviy sirkning badiiy ifoda vositalari bilan boyitib kelmoqda.

Shu bilan birga, etnosport turlari bo'yicha mahallarda tizimli ravishda musobaqalar va festivallar o'tkazish, buning uchun tegishli infratuzilma yaratish, milliy sport turlari va xalq o'yinlarini xalqaro darajaga olib chiqish hamda keng targ'ib qilish, ularni rivojlantirish va ommalashtirish borasida ko'plab muammolar mavjud.

Shu sababli, Etnosport turlarini 2025-yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturi (keyingi o'rinlarda — Dastur) ishlab chiqildi.

Dastur etnosport turlarini tizimli rivojlantirishning maqsadi, vazifalari, asosiy yo'nalishlari,

istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda kelgusida ushbu yo‘nalishda chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ha albatta bugungi kunda dunyo xalqlarining turli tarixiy bosqichlarida o‘qitish va ta’lim-tarbiya jismoniy madaniyat va sport sohasi masalalarini o‘rganish pedagogika fanida hamma vaqt qiziqarli mavzulardan biri bo‘lib kelgan.

Shu asosda mavzuga birmuncha yaqin tadqiqotlarni dunyo olimlaridan M.Jemson, E.Gordon, Bahouddin O‘gellar amalga oshirgan [13; 16-23-b., 11; 105-119-b, 9; 788-b.].

Shuningdek Rus olimlaridan E.M.Peshereva, V.V.Bartold, A. Shishovlar bir qancha tadqiqotlarni amalga oshirganlar. [17; 82-98-b., 6; 532-b, 22; 225-226-b.]

O‘zbek olimlaridan M.Qodirov, T.S.Usmonxo‘jayev, U.X.Qoraboyev, R.Yo‘ldosheva, Sh.Galiyevlar milliy etno sport turlarini targ‘ib etuvchi bir qator ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishgan [14; 123-b., 20; 279-b., 12; 167-b., 10; 168-b.].

Lekin biz yuqorida sanab o‘tgan ilmiy-nazariy tadqiqotlardan farqi shundaki, ko‘pkari-milliy etnik o‘yin sifatida rivojlanish tarixi va jismoniy mashqlar taraqqiyotidagi ahamiyati mustaqil yirik tadqiqot sifatida etarlicha tadqiq etilmagan.

**ISHNING MAQSADI:** Ko‘pkari ot sport o‘yinlarining tarixiy genezisi, taraqqiyot tamoyillari va zamonaviy sport o‘yinlari takomillashuvidagi ahamiyatini o‘rganish.

**TADDIQOT METODLARI:** Dissertatsiyani yozishda xronologik tizimlilik, davriylik, mantiqiy yondashuv, analiz va sintez, qiyosiy tahlil va adekvat holatda o‘rganishni ta’minlashga qaratilgan metodlar majmui qo‘llanildi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so‘rovlar, test o‘tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar).

**NATIJARLAR VA MUNOZARA:** Dunyoda turli xalqlarga xos xalq o‘yinlarini milliy qadriyatlar, xo‘jalik hayoti va etnopedagogika tadqiqotlari doirasida ularning turli tarixiy-etnografik mintaqalarni bog‘lovchi etnointegratsion funksiyalarini, milliy, mintaqaviy lokal va genetik jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy tarixiy-pedagogik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.. Ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarida xalq o‘yinlarining rivojlanish tendensiyalari, mifologiyasi, transformatsiyasi, tarixiy-madaniy va etnik xususiyatlarini etnografik aspektda tadqiq etish hamda dunyo ilmiy jamoatchiligiga va yoshlarga targ‘ibot etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng yoshlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularni jismonan va ma’nan barkamol qilib tarbiyalash borasida muhim shart-sharoitlar yaratildi.

Ko‘pkari o‘yinini tashkil etish va o‘tkazish xalqona qat’iy qoidalar hamda me’yorlarga asoslangan bo‘lib, yoshlarda chaqqonlik, hushyorlik, ustamonlik, halollik, raqibni hurmat qilish, mehmondo‘stlik, tolerantlik kabi fazilatlarini shakllantirganligi aholining, ayniqsa, yoshlarning sog‘lom turmush tarzi, jismoniy va ma’naviy barkamollik xususiyatlarini rivojlantirishga asoslanadi.

“Yoshlar tarbiyasi borasida asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga tayanib, vatanparvarlik tuyg‘usini kamol toptirish, ularni sog‘lom turmush tarzi ruhida tarbiyalashga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kuchaytirish” [1; 125-b., 2; 66-b.] dolzarb vazifa etib belgilandi. Respublikamizda xalq o‘yinlari tarixini ilmiy asoslangan holda yaratish va keng miqiyosda jahonga targ‘ib qilish maqsadida “Polvonlar milliy ensiklopediyasi” jamiyati butunjahon o‘yinlari “TAFISA” xalqaro tashkilotiga a’zo bo‘ldi. Bugungi kunda o‘zbek xalqi nomoddiy madaniy merosi qatorida kurash, uloq, qo‘l jangi, kabi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik xo‘jalik an’analari bilan bog‘liq predmetli hamda predmetsiz xalq o‘yinlarining o‘rganilishi, tiklanishi va hayotga tatbiq etilishi nafaqat ilmiy, ayni paytda amaliy jihatdan ham dolzarbligidan dalolat beradi.

Xalq o‘yinlarini ilmiy jihatdan o‘rganish masalalari dastlab XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida tavsifiy xarakterda bo‘lgan bo‘lsa-da, o‘sha davr mualliflari voqeliklarni bevosita o‘zlari kuzatganliklari, guvoh bo‘lganliklari sababli ular tomonidan yozib qoldirilgan asarlar hozirgi davr ilmiy tadqiqotlari uchun katta ahamiyat kasb etmoqda. Sovet davridagi olimlar o‘zlaridan oldingi tadqiqotchilarning ilmiy yutuqlariga tayangan holda yangi materiallar yig‘ib, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Mustaqillik davridagi tadqiqotlarda esa tom ma’noda milliy qadriyatlarni, an’analarni tiklash, jahondagi turli ilmiy



maktablarning ilg'or tajribalaridan foydalanib, muammoga yangicha ilmiy-nazariy jihatdan yondashish kuzatiladi [14; 123-b., 20; 279-b., 10; 168-b.].

Qadimgi davrlarda ham ibtidoiy odamlar turli-tuman jonivorlar holati, hatti-harakatlariga taqlid qilib, muayyan o'yinlarni o'ylab topganlar. Bu davrdagi ovchilik o'yinlari odatda totemistik va animistik qarashlar bilan aloqador bo'lgan. Dastlab, ibtidoiy marosimlarning tarkibiy qismi bo'lgan totemistik raqs va o'yin harakatlari keyinchalik ananaviy o'yin hamda tomosha sanati asariga aylanib ketgan. Demak, ananaviy xalq o'yinlarini tadqiq etish orqali qadimgi davrlarda yashagan ajdodlarimiz dunyoqarashini o'rganish mumkin bo'ladi.

Milliy manaviyatimizning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi jihatlardan biri hisoblangan ananaviy xalq o'yinlari xalqimiz maishiy turmushining ajralmas qismiga aylanib ketgan. Ananaviy xalq o'yinlar ajdodlarimizning ijtimoiy-manaviy va estetik ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan. Chunki har bir o'yin shunchaki bo'sh vaqtni ko'ngilli o'tkazish vositasi emas, balki yosh avlodni jismoniy va manaviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashning samarali usullaridan biridir. Ajdodlarimiz o'z farzandlarini umumbashariy tuyg'ular, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida ananaviy xalq o'yinlarining yuksak manaviy qudratidan samarali foydalanib kelishgan. O'yinlar ham xalq ommasining ijodiy salohiyati natijasida yuzaga kelganligi, asrdan-asrga anana tarzida yashab kelayotganligi, turli-tuman variantlarda ommalashganligi mohiyatan xalq ijodiyotining mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ham ananaviy xalq o'yinlarining kelib chiqishi tarixi, yosh avlod tarbiyasidagi ijtimoiy-estetik ahamiyatini tadqiq etish bugungi etnolog va pedagoglar uchun dolzarb etnopedagogik muammo hisoblanadi [14; 123-b., 20; 279-b.].

An'anaviy xalq o'yinlarini tadqiq qilish va targ'ib etish-ajdodlarimizning yosh avlodni komil insonni voyaga etkazish borasidagi qadimiy ananalarini tiklash yo'lidagi muhim bir qadamdir. Xalqimizning ruhiy kechinmalari, moddiy va manaviy turmushi, milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi ananaviy o'yinlar uch ming yillik tarix davomida sayqallanib kelgan manaviy qadriyatlarni avaylab-asrash borasidagi umumxalq harakatining tarkibiy qismidir.

Xalqimizning ommaviy sayl-tomoshalari, marosimlari ham o'yinlarsiz o'tmaydi. Shu bois ananaviy xalq o'yinlarini o'rganish xalq ruhiyati va madaniy hayotining o'ziga xos jihatlarni anglashga imkon beradi. O'yinlarining tarixiy-genetik asoslari ochib berilmaganligi tufayli o'yinlarning shakllanish bosqichlari va taraqqiyoti tamoyillari ham haligacha to'liq o'rganilmagan. Ananaviy xalq o'yinlarining genetik tasnifi, o'yinlarning ijtimoiy hodisasi sifatidagi yuzaga kelish tarixi va tadrijiy rivoji, o'yin tarkibidagi ijtimoiy-iqtisodiy elementlarning xususiyatlari va o'yinlarning estetik tarbiya vazifalarini alohida ilmiy jihatdan tadqiq etish zarurligi mavzusining dolzarb ekanligini ko'rsatadi [19; 78-b., 18; 116-b., 17; 82-98-b.].

1930-1950 yillarda xalq o'yinlari muammosi haqida tadqiqotlar olib borishda "ilmiy tanaffus" kuzatiladi va 60-80 yillarga kelib xalq o'yinlariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilib, ilmiy-ommabop asarlar chop ettirish doirasi kengaydi. O'zbekiston, shuningdek, Farg'ona vodiysi aholisi xalq o'yinlarini o'rganishga qaratilgan ishlar sirasiga G.P.Snesarev, M.Qodirov, T.Usmonxo'jaev, F.Xo'jaev, U.G'ofurov, B.Almazov, O.Safarov, I.F.Bobilev, O.Bo'rievlar [14; 123-b., 20; 279-b., 7; 102-179-b., 10; 168-b.] kabi olimlarning maqola, kitob, risolalarini kiritish mumkin.

Xalq o'yinlari bo'yicha turli soha olimlari S.P.Nesterov, O'roz Haydar, R.Abdumalikov, T.T.Yunusov, I.Abdurahmonov, Sodiq Sayhun, R.Samibekov, A.Musaqulov, D.B.Saparaliev, T.K.Kenesarev, K.SH.SHoniyozov, S.V.Yo'ldoshev, U.Qoraboev, A.Allamurodov, I.M.Jabborov, N.N.Jo'raev, B.F.Madaminov, A.Xodjaev, A.A.Ashirov, A.Anarboev, N.A.Dubova, M.Orziev, K.Xollieva [14; 123-b., 20; 279-b., 20; 279-b., 7; 102-179-b., 12; 167-b., 10; 168-b.] kabi mualliflarning asarlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, aholi orasida ommaviylashgan xalq o'yinlari, jumladan, uloq (ko'pkari) o'yini va ot bilan bog'liq poyga, qiz quvdi, qo'noq berish kabi udumlar haqida turk olimi Baxaidin O'gelning "Turk madaniyati" [9; 788-b.] kitobida muhim ma'lumotlar berilgan. Ta'kidlab o'tish joizki, umuman turkiy xalqlarga xos bo'lgan bu kabi xalq o'yinlari an'analarning analogik manzarasini Farg'ona vodiysi xalq o'yinlarida ham kuzatish mumkin.

Shu bilan birgalikda yaqin qo'shni mamlakatlarning matbuot materiallaridan, jumladan,

“Kokboru” (Qirg‘iziston), “Haqiqati Tojikiston” (Tojikiston), kabi o‘nlab davriy matbuot materiallaridan ham foydalanildi. Ularda xalq o‘yinlarining xo‘jalik hayoti bilan bog‘liqligi, kundalik maishiy turmushga ta’siri va oilaviy marosimlardagi o‘rni, o‘yinlarda qo‘llaniladigan buyumlar, ayniqsa, uloqchi otlar va ularning tarixi masalalariga oid ko‘plab ma’lumotlar yoritilgan.

Qadimgi va o‘rta asrlar hamda so‘nggi davrlarda yaratilgan doston, diniy-mifologik asrlarda aks etgan xalq o‘yinlari hamda ularning tarixi va etnografiyasiga oid ma’lumotlar tadqiqotning manbaviy bazasini mustahkamlashga xizmat qildi. Jumladan, Zardushtlarning muqaddas kitobi “Avesto”, o‘zbek xalq dostonlari “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li”, qirg‘iz xalq eposi “Manas”, tojik xalq dostoni “Pahlavon Rustam” dostonlarida aks etgan ma’lumotlar xalq o‘yinlarining tarixiy-mifologik asosini o‘rganishda ilmiy muomalaga olib kirildi. Shuningdek, Firdavsiyning “Shohnoma”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarida ham xalq o‘yinlariga doir qimmatli ma’lumotlar berilgan.

**XULOSA VA TAVSIYALAR.** Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarida xalq o‘yinlarining rivojlanish tendensiyalari, transformatsiyasi, tarixiy-madaniy va etnik xususiyatlarining saqlanib qolish omillari bugungi zamon yosh avlodni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ko‘pkari kabi xalq o‘yinlarining yosh avlod, umuman, aholining sog‘lom turmush tarzi, jismoniy hamda ma’naviy barkamolligini oshirishdagi o‘rni va rolini, tarbiyaviy ahamiyatiga xizmat qiluvchi omil ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Yurtimizda xalq o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazish xalqona qat’iy qoidalar hamda me’yorlarga asoslangan bo‘lib, yoshlarda chaqqonlik, hushyorlik, ustamonlik, halollik, raqibni hurmat qilish, mehmondo‘stlik, tolerantlik kabi fazilatlarini shakllantirganligi aholining, ayniqsa, yoshlarning sog‘lom turmush tarzi, jismoniy va ma’naviy barkamollik xususiyatlarini rivojlantirishda xalq o‘yinlarining o‘rni hamda tarbiyaviy ahamiyati beqiyos sanaladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”. Toshkent. O‘zbekiston. 2019. - B 125.
2. Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 66.
3. Абдумаликов Р., Юнусов Т.Т. Кўпқари – халқ миллий от ўйини. – Тошкент: ЎзДЖТИ, 1991. – 57 б.
4. Абдумаликов Р., Абдуллаев А., Норкулов Ш. Халқ миллий ўйинлари мажмуида маънавий масалалари. – Тошкент: ЎзРЖТИ, 1995. – 87 б.
5. Абдурахимов Т. Ўзбек халқ ўйинлари ва томошалари. – Тошкент: НДА; 1997. – Б.52-56.
6. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Сочинения. – М., 1963. -Т.II. – Ч.1. – С.532.
7. Бобилев И.Ф. Конные игры. – Ташкент: Мехнат, 1989. – С.102-179.
8. Бўриев О. Наврўз тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 1990. – Б.12-79.
9. Bahaeddin Ögel (prof. Dr) Dünden bu’güne. Türk Kültürünün Gelişme Çağları. Türk Dünyası Araştırmaları Vakfı. – Istanbul, 1998. – 788 b.
10. Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклорининг таснифи ва поэтикаси. Филология фанлари номзоди... дис. - Тошкент, 1998. – 168 б.
11. Gordon E. Animals as Represented in the Sumerian Proverbs and fables. // Сб. Древний мир, – М.:1962. – Р. 105-119.
12. Йўлдошева Р. Ўзбек халқ ўйинларининг тарбиявий аҳамияти. – Тошкент: Фан, 1992. – 167 б.
13. Jamson M. Mucanean Religion. – Arxeology, 1960. – P. 16-23.

14. Қодиров М. Ўзбек халқ томоша санъати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б.123.
15. Қорабоев У.Х. Ўзбекона ўйинлар. // Гулистон. – Тошкент: Фан, 1991. – № 9.
16. Нестеров С.П. Конь в культурах тюркоязычных племен Центральной Азии в эпоху средневековья. – Новосибирск: Наука, 1990. – С.79-134.
17. Пешерева Е.М. Некоторые игры среди оседлого населения Туркестана. // Бюллетень САГУ. 1925. – Т.2. – С.82-98.
18. Содик Сайхун. Абдулла полвон. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 116 б.
19. Самибеков Р. Чавондознинг белбоғи. – Тошкент: Мерос, 1998. – 78 б.
20. Усмонхўжаев Т.С., Хўжаева.Ф. Минг бир ўйин. – Тошкент: Ибн Сино, 1990. – 279 б.
21. Ўроз Ҳайдар. Кўпкари // Мулоқот. – Тошкент, 1991. – №7.
22. Шишов. А. Сарты. / Этнографическое и антропологическое исследование. Ч.І. Этнография. – Ташкент: 1904. – С. 225-226.